



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

POETONIM TURLARI VA ULARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA QO'LLANILISHI

Bekchanova Hilola Dmitriyevna
Urganch davlat universiteti tayanch doktranti
hilola.bekchanova.1995.12.31@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179269>

Annatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tilida qo'llaniladigan poetonimlarning turlari haqida fikr mulohazalar yurililadi. Shu bilan birga ularning badiiy matnda ishlatilishi tahlil qilinadi. Antropoetonim, zoopoetonim va topoetonimlarning o'rni va ahamiyati ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: poetonim, badiiy yuk, antropoetonim, topoetonim, zoopoetonim.

Bugungi kunda ilm- fan rivojiga o'z xissasini qo'shmoqchi bo'lgan yosh olim va olimalarning izlanishlari natijasida har bir soha uchun o'ziga mos terminlarni qo'llash naqadar to'g'ri ekanligini ochib berishmoqda. Shu boisdan, badiiy adabiyotda qollaniladigan onomastik birliklarning asl nomini o'rganish talab darajasida bo'lib bormoqda.

Poetonim - adabiy asarda muallif tomonidan mohirona qo'llanilgan, asarni tasirchanligini oshirishga xizmat qilgan shu bilan birga badiiy yukli va poetik qiymatga ega bo'lgan nomlar tushuniladi[4, 330]. Poetonim bu har qanday onim emasligini takidlagan olim bu -S.I.Zinin hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, badiiy matnda obraz yaratish, estetik tasirchanlikni ochirish maqsadida foydalaniladigan onomastik birliklar deb ham ataladi. D.Andaniyizova "Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi" mavzusida yozgan ilmiy tadqiqot ishida onomastik birliklarni tahlil qilib, badiiy matndagi har qanday nom emas, balki ijodkor badiiy niyatini yoritishga xizmat qilgan nomlar poetonim termini ostida o'rganilishi maqsadga muvofiq ekanligi takidlangan. Chunki ayni termin onomastik birliklardan yasaladigan poetonimlarning ichki turlarini nomlashda ham qulaydir. Masalan, poetik yukli shaxs nomlariga nisbatan "antroponim" emas, balk "antropoetonim", hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar uchun "zoopoetonim", joy nomlariga nisbatan "topoetonim" tarzidagi sof sohaviy terminlarni qollash sohaga oid terminlarni bir qadar tartibga solishga yordam beradi[1,12]. Aynan shunday xulosaga kelish bilan poetonim termini doirasida 1- antropoetonim; 2- zoopoetonim; 3- topoetonim kabi soha ichida terminlar paydo bola boshladi.

Antropoetonimlar: Badiiy asarda shaxslarning ism-shariflari, taxa'lluslari yoki laqablaridan foydalanish orqali yaratilgan poetonimlardir;



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Zoopoetonimlar: Hayvonlarga oid nomlardan foydalanib, badiiy asarda maxsus ma'no va tasvir yaratish uchun ishlatiladi;

Topopoetonimlar: Joy nomlaridan foydalanib, badiiy asarda muayyan joyning o'ziga xosligini yoki muhitini aks ettirish uchun qo'llaniladi [1,16].

M.Radjabova o'zining onomastikaga oid ilmiy-tadqiqot ishida antroponim komponentli frazeologik birliklar haqida shunday misol keltiradi: — Antroponim (kishilarning nomlari) komponentli birliklar. Bu guruh frazeologik birliklari o'z navbatida bir necha guruhlarga bo'linadi. Masalan, ingliz tilida: *Jack at pinch*; rus tilida: *no Ивашке и рыбаука*; o'zbek tilida: *Ishni qilar Masharif, mushtni yeydi Mirsharif*. [3,17]

O'zbekiston xalq shoiri E.Vohidov "Donishqishloq latifalari" asaridagi parchaga e'tibor qaratsak bu yerda topopoetonimni yaqqol misolini ko'rishimiz mumkin.

Donishqishloq degan joy Bordir bizning tomonda.

O'sha qishloq ahlidek Dono xalq yo'q jahonda.

Ushbu she'rning onomastik ko'lamini o'z ichiga olgan bo'lib, o'zbek toponimik fondida bunday joy nomi uchramaydi. Shoirning mahorati shundaki, o'z qahramonlari yashaydigan hududni Donishqishloq deb ataydi va aholisini sodda, bayov va aqlli deb hisoblaydi. Muallif joy nomini boshqa xususiyatlarga ko'ra atashi ham mumkin edi, biroq mug'ombirlikni bilmaydigan aholi yashaydigan joyni Donishqishloq deb ataydi. Donishqishloq – shoir idealidagi toza va samimiy insonlar qishlog'i. Ularning donoligi ayyor va mug'ombir insonlar donoligidan ko'ra yuksakroq. Shu bois kitobxon bu qishloqni yaxshi ko'rib qoladi[2,534].

Echoes of London

Beneath the sky of London, grey and wide,

*Where **Thames** whispers secrets, side by side.*

The streets are tales of ages old,

In every corner, stories told.

*From Tower's gaze to **Big Ben's** chime,*

Echoes of the past, frozen in time.

A city of dreams, yet ever awake,

With every step, history to make.

In Piccadilly's heart, the lights do gleam,

*In **Hyde Park's** silence, one can dream.*

***London**, you are more than just stone,*

A living poem, forever grown.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Ushbu she'riy parcha John Williams ga tegishli bo'lib, unda Londonning diqqatga sazavor yerlari va tarixiy joylari nomi keltirilgan.

Ingliz va ozbek tillaridagi topoetonimlar joy nomlarini anglatsada, ularning orasida farqlar mavjuddir. Chunki har bir millatning milliyliki va oziga xosligi, tarixi va an'analari hamda dunyoqarashi shu nomlarda aks etgani sababli bir birini taqazo etmaydi.

Usmon Nosirning quyidagi she'ridan parchada antroponimning yaqqol misolini ko'rishimiz mumkin: *Men – Majnunman, she'rim sen – Layli.*

Erkin Vohidovning O'zbekim she'ridan parchada ham poetonimlarning qay darajada ustalik bilan ishlatilgani, kitobxonni qiziqish va zavqlanishga undashi aniq.

*Yig'ladi furqatda **Furqat** ham muqumlikda **Muqumiy**,*

*Nolishingdan **Hind-u Afg'on** qildi afg'on, o'zbekim.*

Poetonimlar she'riy matnda alluziv nom, talmeh, tajnis, tashbeh, mubolag'a kabi uslubiy vositalarni yuzaga keltiradi[5,6]. Odatda ular xalqning xotirasida saqlanib qoluvchi mashhur nomlar bilan atalib, she'rning badiyiligi oshirishga hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andaniyazova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi.
2. f.f.f.d.(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2017. –b. 12-16
3. Andaniyazova D. “Muvaqqat onomastik birliklarning badiiy matndagi vazifalari” Respublika ilmiy –amaliy anjuman maqolalar toplami. – b. 534
4. Radjabova M. Onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatlari va tarjima muammolari (ingliz, rus va o'zbek tillari materiallarida).
5. f.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Buxoro, 2020.
6. Зинин С.И. Имена персонажей в художественной литературе и фольклоре /
7. С.И. Зинин, А.Г. Степанов // Антропонимика. - М., 1970. - С. 330-355
8. Durdon Xudayberganova, Dildora Andaniyazova “ O'zbek tili poetonimlarining izohli lug'ati”. –Toshkent, Turon Zamin Ziyo, 2016. –b 5-6